



A COMPARATIVE ANALYSIS OF “MANHAJ”-TYPE WORKS ON HADITH METHODOLOGY WRITTEN IN THE 20TH CENTURY

Jurakulov Sunnatulloh

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

1st master's degree student of Islamic studies

+998997581914. alnavaiyuz@gmail.com

Turayev Numonjon Nasibjonovich

Academic Advisor: International Islamic Studies Academy of
Uzbekistan Associate Professor of the Department of “Islamic
Studies and Study of Islamic Civilization ICESCO,” PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288735>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

Nur al-Din 'Itr, “Manhaj al-naqd”, hadith studies, comparative analysis, sanad and matn, methodology, mustalah al-hadith.

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the specific features of Dr. Nur al-Din 'Itr's work “Manhaj al-naqd fi 'ulum al-hadith” with other contemporary and classical works written in the discipline of “Manhaj fi 'ulum al-hadith.” The main objective of the article is to reveal Nur al-Din 'Itr's unique methodology in classifying the sciences of hadith, particularly his epistemological shift in consolidating the scattered 65 categories from classical works into 6 major fundamental sections (narrators, transmission, sanad, matn, acceptance/rejection, and joint sciences). Furthermore, the study justifies why the author prioritized certain topics (e.g., the science of narrators and transmission) and how he seamlessly integrated the criticism of sanad and matn, by comparing his structural framework with the tables of contents of books by other authors such as Sharaf al-Qudat, Muhammad Samahi, and Ali Nayif Buqai.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРУДОВ ТИПА «МАНХАДЖ» ПО МЕТОДОЛОГИИ ХАДИСА, НАПИСАННЫХ В XX ВЕКЕ

Журакулов Суннатуллох

Международная академия исламоведения Узбекистана

исламоведения, магистрант 1-курса

+998997581914, alnavaiyuz@gmail.com

Тураев Нуманжон Насибжонович

Научный руководитель: Международная академия исламоведения Узбекистана

Доцент кафедры “Исламоведение и изучение исламской цивилизации ICESCO”,
PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288735>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье проводится сравнительный анализ специфических особенностей труда доктора Нуриддина Итра «Манхадж ан-накд фи улум ал-хадис»



Нуриддин Итра,
«Манхадж ан-нақд»,
хадисоведение,
сравнительный анализ,
иснад и матн,
методология, мусталах
ал-хадис.

с другими современными и классическими произведениями, написанными в направлении «Манхадж фи улум ал-хадис». Основная цель статьи — раскрыть уникальную методологию Нуриддина Итра в классификации хадисоведения, в частности, его эпистемологический прорыв, объединивший разрозненные 65 видов из классических трудов в 6 крупных фундаментальных разделов (передатчики, передача, иснад, матн, принятие/отвержение и совместные науки). Кроме того, в ходе исследования на основе сравнения с оглавлениями трудов других авторов (Шараф аль-Кузат, Мухаммад Самахи, Алий Найиф Букай) обосновывается, почему автор выдвинул определенные темы на первый план (например, науку о передатчиках и передаче) и как он органично связал критику иснада и матна.

XX ASRDA YOZILGAN HADIS USULIGA DOIR “MANHAJ” USLUBIDAGI ASARLAR QIYOSIY TAHLILI

Jurakulov Sunnatulloh

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

+9989997581914

alnavaiyuz@gmail.com

To‘rayev No‘monjon Nasibjonovich

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288735>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

Nuriddin Itr, “Manhaj an-naqd”, hadisshunoslik, qiyosiy tahlil, sanad, matn, metodologiya, mustalah al-hadis.

ABSTRACT

Ushbu maqolada doktor Nuriddin Itrning “Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis” asarining o‘ziga xos xususiyatlari, uning boshqa zamonaviy va mumtoz “Manhaj fi ulum al-hadis” yo‘nalishida yozilgan asarlar bilan farqli hamda afzal jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi – Nuriddin Itrning hadis ilmlarini tasniflashdagi o‘ziga xos metodologiyasini, xususan, klassik asarlardagi tarqoq 65 ta turni 6 ta yirik fundamental bo‘limga (roviylar, rivoyat, sanad, matn, qabul-rad va mushtarak ilmlar) birlashtirib, fanda ulkan burilish yasaganini ochib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida muallif nima uchun ayrim mavzularni (masalan, roviylar va rivoyat ilmini) boshqalardan oldin keltirgani, sanad va matn tanqidini qanday uzviy bog‘lagani hamda bu borada Sharof Quzot, Muhammad Samohiy, Aliy Noyif Buqoiy kabi boshqa



mualliflarning asarlari fihristi bilan qanday tizimli farq qilishi dalillab berilgan.

KIRISH

“Manhaj” arabcha soʻz boʻlib, “uslub”, “tizim” maʼnolarini bildiradi. XX asrda zamonaviy hadis olimlarining ayrimlari “Ulum al-hadis” sohasida yangi bir uslub - “manhajiy yo ‘l” deb atash mumkin boʻlgan metodologik tartibni yaratishda katta xizmat qildilar. Ular hadis usuli va hadis ilmlarini umumiy jihatlariga qarab turli boʻlimlarga ajratdilar. Masalan:

- roviylar ilmi,
- rivoyat ilmi,
- hadislarning qabul va rad qilinishi bilan bogʻliq turlari,
- matn ilmlari,
- sanad ilmlari,
- sanad va matnga oid umumiy ilmlar kabi boʻlimlarga taqsimladilar.

Shu tarzda yozilgan muhim kitoblardan biri “Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis” kitobi boʻlib uning muallifi – shayx doktor Muhammad ibn Muhammad Samohiy (vafoti: 1404 h.).

Bu bir necha juzdan iborat katta asar boʻlib, muallif unda hadis ilmlarining barchasini qamrab oluvchi mukammal ensiklopediya yaratishni maqsad qilgan. Kitobda sunnat atrofidagi zamonaviy shubhalar va muammolar muhokama qilinib, ularga javoblar berilgan. Shuningdek, hadis ilmlarining qoidalari keng va batafsil tarzda bayon qilingan. Muallif kitobni quyidagi boʻlimlarga ajratgan:

1. Hadis tarixi boʻlimi (3 juz).
2. Hadis istilohi boʻlimi.

3. Rivoyat boʻlimi.

4. Diroyat va qoidalar hamda ularning tatbiqlari boʻlimi.

Kitob Bayrutdagi “Dar al-Bashoir al-Islomiyya” nashriyotida 1426 hijriy yilda chop etilgan.

Muallif ushbu kitobda mavzularni qayta tartiblagan boʻlib, bu talabalar uchun mavzularni tushunishni yengillashtiradi. Baʼzi taʼriflarni qisqaroq, aniqroq va ravshanroq shaklda qayta ishlab chiqqan. Kitob hajmini ham moʻtadil ushlab, shariat fakultetining birinchi bosqich talabalari uchun mos holga keltirgan va uni bir semestr davomida tugatish mumkin boʻlgan tarzda yozgan. Ilmiy mavzular sodda uslubda, tushuntiruvchi vositalar yordamida bayon qilingan. Shuningdek, yangi oʻquvchilar qiynalmasligi uchun soʻzlarning harakatlariga ham eʼtibor berilgan.

Kitob 1425 hijriy yilda Iordaniyaning Amman shahridagi “Akademiyyun lin-nashr vat-tavzi” nashriyotida chop etilgan.

Bundan tashqari “manhaj” uslubida kitob yozgan mualliflardan biri doktor Ali Noyif Buqoiy boʻlib, asarini “Al-Manhaj al-hadis fi tasʼhil ulum al-hadis” deya nomlagan. Muallifning aytishicha, avvalgi hadis usuli kitoblarining koʻpchiligi “sahih hadis” taʼrifi bilan boshlanar edi. Ammo ular taʼrif ichida oʻsha davr talabalari tushungan koʻplab istilohlarni ishlatishgan. Hozirgi davrda



esa bu istilohlarning har biri alohida izoh talab qiladi.

Muallif ushbu kitobning barcha qismlarida hadis ilmini yengillashtirish uchun imkon qadar harakat qilgan. Shu bilan birga, avvalgi olimlarning iboralarini ham saqlab qolgan. Maqsad – keyingi avlod talabalarining oldingi ulamolar ilmiy merosidan uzilib qolmasligi va ilmiy silsila uzluksiz davom etishidir.

“Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis” asarini esa shayx doktor Nuriddin Itr ta’lif etganlar. Bu kitob hadis ilmi bo’yicha yozilgan zamonaviy asarlar ichida o’ziga xos ustunliklarga ega bo’lib, uni ushbu fan bo’yicha eng muhim zamonaviy manbalardan biriga aylantirgan.

Muallif hadis ilmlarini yangi ilmiy uslubda qayta tartiblab, mavzularni:

- matnga oid ilmlar,
- sanadga oid ilmlar,
- sanad va matnga oid umumiy ilmlar ko’rinishida ajratgan.

Shuningdek, hadis ilmining tarixiy taraqqiyotini ham tahlil qilgan hamda sunnatning qanday himoya qilingani va asrlar davomida qanday saqlangani haqida batafsil ma’lumot bergan.

Kitobning yana bir muhim jihati – muallif qadimgi ilmiy merosni saqlagan holda uni zamonaviy ilmiy shaklda taqdim etganidir. Shu sababli asar hadis ilmini himoya qiluvchi muhim ilmiy hujjat sifatida baholanadi hamda sunnatga oid ayrim shubha va e’tirozlarga javob beradi.

Kitob Damashqdagi “Dor al-Fikr” nashriyotida bir necha bor chop etilgan.

Hadis ilmi islom dini va shariatining eng muhim manbalaridan biri bo’lib, asrlar davomida uni o’rganish

usuli (mustalah al-hadis) turli rivojlanish bosqichlaridan o’tidi. Ilk va keyingi davr ulamolari zamonida hadis ilmlari juda yuqori darajaga yetgan bo’lsa-da, ularning asarlarida qoidalar ko’pincha tartibsiz va tizimga solinmagan holda, sanab o’tish tarzida bayon qilingan edi. Masalan, Imom Hokim Naysaburiy hadis ilmini 52 turga, Ibn Saloh esa o’zining mashhur “Muqaddima”sida 65 turga ajratgan. O’sha davr olimlari uchun bu uslub yetarli deb qaralgan bo’lsa-da, bugungi zamonaviy ta’lim olgan, tahliliy fikrlashga ega talabalar uchun bu qoidalarni yagona, tartibli tizimga solib o’rganish ma’lum darajada tushunishda qiyinchilik tug’diradi.

Shu kabi ilmiy tushunishdagi muammolar va g’arb sharqshunoslarining hadis ilmiga nisbatan asossiz tanqidlari kuchaygan bir paytda, yirik muhaddis Nuriddin Itr o’zining muhim “Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis” asarini yozdi. U bu asarida qadimiy 65 turdagi bo’linishni qisqartirmasdan, balki ularni 6 ta yirik va o’zaro bog’liq bo’limga (roviylar, rivoyat, sanad, matn, qabul-rad va mushtarak ilmlar) jamlab, hadis ilmini tartibli va tushunarli tizimga solib berdi hamda bu sohada muhim yangilik kiritdi (Kurdian I.R., 2026:192).

Nuriddin Itrning ushbu muvaffaqiyatli qadamidan so’ng, arab akademik doiralarida mustalah al-hadis fanini zamonaviy uslubda yoritishga qaratilgan, hatto nomlanishida ham “Manhaj” so’zi qo’llanilgan qator asarlar dunyoga keldi. Xususan, ushbu maqolada qiyosiy tahlil qilinayotgan Sharof Quzotning “Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis”, Muhammad Muhammad



Samohiyning “Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis (Qism mustalah al-hadis)” hamda Aliy Noyif Buqoiyning “Al-Manhaj al-hadis fi tas’hiyl ulum al-hadis” asarlari shular jumlasidandir. Turk tadqiqotchisi A. Kiraz o‘z izlanishlarida ta’kidlaganidek, Nuriddin Itrning asari nashr etilgach, uning nomlanishiga o‘xshash ko‘plab kitoblar yozilgan bo‘lib, ularning aksariyati aynan Itrning asaridan bevosita foydalangan va uning tuzilishidan ta’sirlangan holda maydonga kelgan (Kiraz A., 2023:323).

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Nuriddin Itrning “Manhaj al-naqd” asarini aynan yuqorida sanalgan, bir davrda va o‘xshash yo‘nalishda – manhaj uslubida yozilgan boshqa 3 ta asar bilan qiyosiy tahlil qilishdir. Tahlil davomida mualliflarning mundarija tuzish mantig‘i, Nuriddin Itr nima uchun ayrim mavzularni (masalan, roviylar va rivoyat ilmini) sanad va matn muhokamasidan oldin keltirgani, nega ba’zi mualliflar matn tanqidiga kam e’tibor qaratib, Itr esa uni sanad tanqidi bilan uzviy bog‘lagani kabi masalalar qiyoslab ochib beriladi. Shuningdek, asarlarning tarkibiy tuzilishi, mavzular qamrovi hamda klassik “ulum al-hadis” asarlaridan farqli ravishda bugungi kunda “Manhaj al-naqd”ning mutlaq afzalligi amaliy dalillar va fihristlar tahlili asosida yoritiladi.

XX asrda yozilgan hadis usuliga doir “manhaj” tipidagi asarlar qiyosiy tahlili.

ASOSIY QISM

Hadis ilmini o‘qitish va o‘rganishda kitobning qanday tartibda tuzilgani – mundarijasi juda muhim. Chunki aynan shu tuzilma asarning ilmiy darajasi va muallif nimani ko‘zlaganini ko‘rsatadi.

Nuriddin Itrning “Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis” asari o‘zining puxta va tartibli tuzilishi bilan nafaqat klassik kitoblardan, balki o‘z davrida yozilgan boshqa “manhaj” uslubidagi asarlardan ham aniq ajralib turadi.

Ma’lumki, klassik ulamolar, jumladan Ibn as-Saloh o‘zining “Muqaddima” sida hadis ilmlarini 65 ta kichik turga bo‘lib, ularni aniq guruhlariga ajratmasdan, ketma-ket sanab o‘tish uslubida bayon qilgan. Nuriddin Itr esa bu tarqoqlikni tartibga solib, fanni tushunarli va yaxlit holga keltirish maqsadida barcha ilmlarni 6 ta katta bo‘limga birlashtirgan: roviylar ilmi, rivoyat ilmi, qabul va rad jihatidan hadis ilmlari, Matn ilmlari, Sanad ilmlari hamda Sanad va matn o‘rtasidagi mushtarak ilmlar (Itr N., 1997:27). Bunday tartiblash orqali talaba hadis ilmini bo‘lak-bo‘lak emas, balki umumiy va mantiqiy tizim sifatida osonroq tushuna oladi (Kurdian I.R., 2026:192).

Bunga qiyosan, Muhammad Samohiyning “Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis” asarini tahlil qilsak, muallif fanni yagona bir butunlikda emas, balki ikki alohida mustaqil kitobga: “Mustalah al-hadis qismi” (Samohiy M., 2000:3) va “Roviylar qismi”ga (Samohiy M., 2000:248) ajratib yuborganini ko‘ramiz. Samohiyning bu uslubi klassik davrdagi “Rijol ilmi” va “Mustalah ilmi”ni alohida o‘rganish an’anasiga mos kelsa-da, zamonaviy talaba uchun uzviy bog‘liqlikni yo‘qotadi. Chunki roviyning adolat va zabti bevosita hadisning sahih yoki zaifligiga ta’sir qiladi, ularni ikkita alohida asarga ajratish sanad va matn tahlilidagi bog‘liqlikni susaytiradi.



Shuningdek, doktor Aliy Noyif Buqoiyning “Al-manhaj al-hadis fi tas’hil ulum al-hadis” asari mundarijasiga e’tibor qaratsak, kitob asosan talabalarga fanni “tas’hil” (osonlashtirish) maqsadida yozilganligi sababli, chuqur tanqidiy nazariyaga ega emas. Buqoiy asarining 1-bobidayoq “Hadisning kimga nisbat berilishi” – qavliy, fe’liy, qudsiy, marfu’ mavzularini roviylar va rivoyat ilmlari bilan bitta umumiy faslga kiritib yuborgan (Buqoiy A.N., 2002:24). Nuriddin Itr esa qudsiy, marfu’, mavquf kabi tushunchalarni “Matn ilmlari” (5-bob) degan alohida yirik bo’lim ostida, faqat qabul va rad qoidalari o’rganilgandan keyingina tahlil qiladi (Itr N., 1997:280). Chunki hadisning kimga nisbat berilishini o’rganishdan oldin uning uzatilish jarayoni va to’g’riligini isbotlash mantiqan birinchi o’rinda turishi kerak.

Nuriddin Itr o’z asarida “Istilohlar bo’yicha umumiy ta’riflar” (1-bob)dan so’ng darhol “Hadis roviylari ilmlari” (2-bob) va “Hadis rivoyati ilmlari” (3-bob)ni keltiradi (Itr N., 1997:75-167). Ushbu o’rinda olim qabul va rad qoidalari (sahih, hasan, zaif)dan oldin aynan roviy va rivoyatni keltirdi. Buning sababi obyektiv mantiqqa tayanadi: Hadis – bu xabar. Xabar esa xabarni yetkazuvchi shaxs – roviy va yetkazish usuli – rivoyat orqali yetib keladi. Agar roviyning adolati, zabti hamda uni yetkazishdagi odoblari va qoidalari o’rganilmasa, xabarning o’ziga (sahih yoki zaifligi baholashga) o’tish metodologik xatodir. Itr avval “roviy”ni, so’ng “jarayon”ni, shundan keyingina “natija” (sahih-zaif)ni tahlil qilgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, Sharof Quzot o’zining “Al-manhaj al-

hadis fi ulum al-hadis” asarida bu tartibni biroz boshqacha qilgan. U 2-bo’limni “Rivoyat ilmlari” ga, 3-bo’limni esa “Roviylar haqidagi ilmlar” ga ajratgan (Quzot Sh., 1999:29-53). Ya’ni u avval rivoyat jarayonini, keyin esa roviyini o’rganadi.

Aslida esa bu tartib unchalik to’g’ri emas, chunki ishni bajaruvchi shaxs – roviy rivoyatning o’zidan oldin turishi mantiqan to’g’riroq.

Yana bir muhim jihat: Sharof Quzot hadisni qabul qilish yoki rad etish (ya’ni sahih, hasan, zaif) masalasini kitobning oxirgi qismiga – 7-bo’limga qo’ygan (Quzot Sh., 1999:169). Bu esa talabaga biroz qiyinchilik tug’diradi, chunki u kitob oxirigacha bormaguncha hadisning asosiy baholash mezonlarini to’liq tushunib yetmaydi.

Nuriddin Itr esa bu mavzuni kitobning o’rtasiga (4-bobga) joylashtirib, uni keyingi mavzular – matn va sanad ilmlarini tushunish uchun asos qilib olgan.

Nuriddin Itr asarining mutlaq afzalligi shundaki, u “Sanad va matn o’rtasidagi mushtarak ilmlar” degan mutlaqo yangicha uslubda 7-bobni kiritgan. Bu bob o’z ichiga mutavotir, mashhur, ohod, shuningdek, munkar, shoz, muztarib, mudraj va muallal kabi o’ta murakkab hadis turlarini qamrab oladi (Itr N., 1997:341-385).

Boshqa mualliflar, xususan Muhammad Samohiy bu turlarni asosan “Zabt sharti yo’qolishi sababli yuzaga kelgan turlar” yoki “Zaif hadisning ko’rinishlari” deb tarqoq holda tushuntirib ketadi (Samohiy M., 2000:213). Aliy Noyif Buqoiy ham



mudraj, musahhaf va muallallarni oddiygina fasllar qatorida “Rivoyatlar ixtilofi” yoki xatolar sababli kelib chiqadigan turlar sifatida zikr qilgan (Buqoiy A.N., 2002:167-179).

Itr bu hadislarini oddiygina zaif hadislar qatoriga kiritmagan. Ularni aynan “sanad va matn birgalikda” o‘rganish asosida tahlil qilgan. Buning sababi shundaki, masalan, “muallal” (yashirin nuqsoni bor hadis) yoki “mudraj” (keyinchalik qo‘shimcha qo‘shilgan hadis) ba’zida sanad jihatidan to‘g‘ri ko‘rinadi, lekin matnda xato bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, sanad ichidagi yashirin xato matnning ishonchligiga ta’sir qiladi.

G‘arb sharqshunoslari esa: “Musulmon olimlar faqat sanadni tashqi tomondan tekshirgan, matnning ichki ma’nosi va nuqsonlariga e’tibor bermagan”, degan asossiz fikrlarni bildirgan (Kiraz A., 2023:324).

Itr esa aynan shu “mushtarak ilmlar” bo‘limi orqali musulmon muhaddislar hadisni faqat sanad yoki faqat matn bilan emas, balki ikkalasini birgalikda, chuqur tahlil qilganini aniq dalillar bilan ko‘rsatib berdi.

Shu jihatdan bu asar oddiy darslik emas, balki hadis ilmini himoya qiluvchi, tanqidiy yondashuvga asoslangan muhim ilmiy asar hisoblanadi.

Yuqorida nomi zikr qilingan 3 ta zamonaviy “Manhaj” kitoblarining (Sharof Quzot, Aliy Buqoiy, Muhammad Samohiy) deyarli barchasi an’anaviy ta’lim uslubiga asoslangan bo‘lib, asosan qoidalarni ta’riflash, misollar keltirish va ulamolarning ixtiloflarini bayon qilish bilan cheklangan. Ularning

mundarijalarida tashqi xurujlarga qarshi ilmiy raddiyalar deyarli ko‘zga tashlanmaydi.

Biroq Nuriddin Itr o‘z asarini Islom ummatining ilmiy himoyasi sifatida ko‘rgan. Uning mundarijasini tahlil qilsak, har bir yirik mavzu ichida muallif zamonaviy e’tirozlarga maxsus to‘xtalganini ko‘ramiz. Masalan:

1-bobda: “Mustashriqlarning hadis yozilishiga nisbatan tanqidiy yondashuvlari va uning tahlili” (Itr N., 1997:54).

2-bobda: “Kattalarning kichiklardan rivoyat qilishi – mustashriqlarga ergashib ba’zi mulhidlar to‘qigan bo‘htonlarga raddiya” (Itr N., 1997:140).

7-bobda: “Goldziherning mashhur hadis borasidagi shubhasi va unga raddiya” (Itr N., 1997:355).

Xotima qismida “fiqhda aytilganidek, hadislar yozilishi kech bo‘lgan” degan shubhalarga javob va “mustalah ilmi faqat quruq qoidalar to‘plami” degan tanqidlarga raddiya keltiriladi (Itr N., 1997:397–403). Nuriddin Itr bu javoblarni hissiyot bilan emas, balki aniq dalillar, tarixiy ma’lumotlar va mantiqli izohlar orqali bayon qiladi.

Masalan, ayrimlar tomonidan “ulamolar zaif hadislarini ajratmagan” degan da’volarga qarshi, u “Ummatimda bir kishi bo‘ladi... unga Abu Hanifa deyiladi” kabi to‘qima hadislarini aynan muhaddislarining o‘zi juda erta davrlardayoq aniqlab, rad etganini ko‘rsatadi. U bu fikrini 15 ta turli manbaga tayangan holda isbotlab beradi (Itr N., 1997:409–413).



Shu orqali u muhaddislar hadisni tekshirishda juda kuchli va mukammal uslubga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Natijada, bu asar oddiy qoidalar kitobi emas, balki hadis ilmini himoya qiladigan va tanqidiy fikrlarga ilmiy javob beradigan puxta yozilgan asar ekanligi ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Samohiy, Aliy Noyif Buqoiy va Sharof Quzotning asarlari hadis atamalarini o'rganishda foydali va amaliy manba hisoblanadi. Ammo fanni kengroq qamrab olishi, uni tartibli qilib 6 ta katta bo'limga ajratgani, sanad va matnni birgalikda o'rganishi hamda hadis ilmini tanqid qiluvchilarga ilmiy javob bera olishi jihatidan doktor Nuriddin Itrning **"Manhaj al-naqd"** asari ulardan ancha ustun turadi. Asar nomidagi "naqd" (tanqid) so'zi ham shuni ko'rsatadiki, bu kitob oddiy ta'riflar yig'indisi emas, balki chuqur tahlil va tanqidga asoslangan ilmiy uslubdagi asardir.

MUHOKAMA

Zamonaviy hadisshunoslik rivojida "manhaj" uslubida yozilgan asarlarning o'rni juda katta. Ilk va keyingi davr ulamolari asarlarida (masalan, Ibn Salohning "Muqaddima" sida) hadis ilmlari 65 ta alohida turga ajratilib, aniq tizimga solinmasdan sanab o'tilgan edi.

Doktor Nuriddin Itr esa o'zining "Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis" asarida bu ilmlarni 6 ta yirik bo'limga jamladi: roviylar, rivoyat, qabul va rad, matn, sanad hamda mushtarak ilmlar (Itr N., 1997:27).

Qiyoslash uchun olingan boshqa zamonaviy asarlar - Sharof Quzotning "Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis", Muhammad Samohiyning "Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis (mustalah va roviylar kitobi)" va Aliy Noyif Buqoiyning "Al-Manhaj al-hadis fi tas'hiyl ulum al-hadis" kitoblari ham zamonaviy o'quvchilar uchun yozilgan.

Lekin ularni Nuriddin Itrning uslubi bilan solishtirganda, ular o'rtasida tartib, mantiqiy bog'lanish va o'qitish uslubi jihatidan ancha sezilarli farqlar borligi ko'rinadi. Ushbu farqlar keyingi muhokama qismida turli tomonlardan tahlil qilinadi.

Muhammad Samohiy o'z asarini ikki alohida qismga ajratgan: "Mustalah al-hadis qismi" va "Roviylar qismi" (Samohiy M., 2000:2, 5). Uning kitobida roviyning jaholati, bid'ati va muruvvati kabi muhim masalalar asarning oxirgi sahifalarida (208-212-betlarda) keltirilgan. Bu esa eski uslubdagi - "Rijol ilmi" va "Mustalah ilmi" ni alohida-alohida o'rganish an'anasining ta'siridir.

Lekin Nuriddin Itr boshqacha yo'l tutadi. Uning fikricha, hadisning sahih yoki zaif bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri roviyga - uning adolati va xotirasiga bog'liq. Shuning uchun u bu ikki yo'nalishni ajratmaydi. Aksincha, "Roviylar ilmi" ni kitobning 2-bobi sifatida kiritib (Itr N., 1997:75), hadis ilmini yaxlit va bir-biriga bog'langan holda tushuntiradi.

Qiyosiy tahlilda eng muhim jihatlardan biri - mualliflar mavzuni qanday tartibda tushuntirganidir.



Nuriddin Itr “Manhaj al-naqd” asarida 2-bobni “Hadis roviylari ilmlari” ga (Itr N., 1997:75), 3-bobni esa “Hadis rivoyati ilmlari” ga (Itr N., 1997:167) bag ‘ishlaydi.

Bu juda to ‘g ‘ri va tabiiy tartib: har qanday hadis avval uni rivoyat qiluvchi shaxs (roviy) orqali keladi, keyin esa uning rivoyat qilish usuli o ‘rganiladi. Ya’ ni avval roviy, keyin rivoyat.

Ammo Sharof Quzot o ‘zining “Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis” asarida bu tartibni teskarisiga qo ‘ygan: 2-bo ‘limni “Rivoyat ilmlari” ga (Quzot Sh., 1999:29), 3-bo ‘limni esa “Roviylar ilmlari” ga (Quzot Sh., 1999:53) ajratgan.

Bu esa unchalik to ‘g ‘ri emas. Chunki rivoyat qilish jarayonini o ‘rganishdan oldin, uni kim bajarayotganini - roviy kimligi, uning ishonchliligi va xotirasi qandayligini bilish zarur. Shu jihatdan Nuriddin Itrning uslubi yanada mantiqli va ilmiy jihatdan ustun hisoblanadi.

Hadisning qabul qilinishi (sahih, hasan) yoki rad etilishi (zaif, mavzu’) asar qamrovining eng muhim tayanch nuqtasidir. Nuriddin Itr bu 4-bobni qoq markazga (Itr N., 1997:212) joylashtirib, avval roviy va rivoyatni tushungan talabaga bevosita hadisdan hukm chiqarishni o ‘rgatadi, so ‘ngra uni matn va sanad ilmlari sari yo ‘naltiradi. Bunga muqobil ravishda, Sharof Quzot asarida eng muhim bo ‘lim hisoblangan “Qabul va rad qilinishi jihatidan bo ‘linishi” (Sahih, hasan, zaif) eng oxirgi bobga – kitobning 7-bo ‘limiga surib qo ‘yilgan (Quzot Sh., 1999:169). Talaba kitobning deyarli

oxiriga yetib borguniga qadar hadislarni baholashning asosiy mezonlarini to ‘liq anglamaydi. Shuningdek, Aliy Noyif Buqoiy ham o ‘zining “tas’hiyl” (osonlashtirish) maqsadida yozilgan kitobining 1-bobidayoq “Hadisning kimga nisbat berilishi” (qavliy, fe’liy, qudsiy, marfu’) mavzularini kiritib yuboradi (Buqoiy A.N., 2002:24-30). Holbuki, qudsiy yoki marfu’ligini muhokama qilishdan oldin, hadisning umuman Islomda qabul qilinishi yoki rad etilishini (ya’ni sahih yoki zaifligini) bilish ustuvorroqdir. Nuriddin Itr shu sababli qudsiy, marfu’, mavquflarni faqat qabul-rad bobidan keyin, 5-bobdagi “Matn ilmlari” ostida (Itr N., 1997:280) juda tizimli tartibda bergan.

Nuriddin Itr asarining boshqa uchala “Manhaj” kitoblaridan eng yaqqol va inqilobiy farqi – bu asarning 7-bobi bo ‘lmish “Sanad va matn o ‘rtasidagi mushtarak ilmlar” bo ‘limidir (Itr N., 1997:341). Itr bu bo ‘limga shoz, munkar, muztarib, mudraj, musahhaf va muallal (illatli) kabi o ‘ta murakkab hadis turlarini kiritadi. Solishtiradigan bo ‘linsa, Muhammad Samohiy shoz va munkarni “Zabt sharti yo ‘qolishi sababli yuzaga kelgan turlar” qatorida (Samohiy M., 2000:213), Aliy Buqoiy esa mudraj va musahhaflarni oddiygina “Roviylar xatosi va rivoyatlar ixtilofi” sifatida tarqoq holda keltiradi (Buqoiy A.N., 2002:172-179). Nuriddin Itr ularni oddiygina xatolar qatoriga emas, aynan “Sanad va Matn mushtarakligi” asosidagi muhokama shuni ko ‘rsatadiki, XX asrda Jozef Shaxt, Ignaz Goldziher kabi sharqshunoslar: “Musulmon muhaddislari faqad sanad (zanjir) tanqidi bilan shug ‘ullangan, ular hadis matnining ichki mantiqiga (matn



tanqidiga) e'tibor qaratmagan", degan da'voni fanga kiritgan edilar (Kurdian I.R., 2026:192). Itr mudraj yoki muallal kabi hadislarni mushtarak deb atashi orqali muhaddislar matnni sanaddan uzib qo'ymagani, yashirin illat (muallal) ko'pincha sanadda sahih ko'rinsa-da, matndagi mantiqiy xatolik orqali fosh etilganligini isbotlab berdi. Bu jarayon zamonaviy fanda "Matniy tanqid" deyiladi.

Bundan tashqari, Samohiy, Quzot va Buqoiy asarlarida xorijiy xurujlarga qarshi raddiyalar deyarli kiritilmagan. Ular asosan an'anaviy-klassik qoidalarni tushuntirish bilan cheklangan. Ammo Nuriddin Itr asarining ko'plab sahifalarini bevosita raddiyalarga bag'ishlaydi. Masalan, 7-bobda bevosita "Goldziherning mashhur hadis borasidagi shubhasi va unga raddiya" (Itr N., 1997:355) sarlavhasini, xotima qismida esa "Mustalah ilmining shakliyligi borasidagi tanqidlarga javob", "Fiqhda da'vo qilinganidek, hadisni yozishning kechikishi degan shubhalarga

raddiya" kabi o'ta muhim masalalarni tahlil qiladi (Itr N., 1997:397-403). U xusumatchilar "muhaddislar yozishni joiz deb topgan" deya ta'na qiladigan "Ummatimda bir kishi bo'ladi... Unga Abu Hanifa deyiladi" degan to'qima hadisni musulmon olimlarning o'zi barcha asrlarda fosh qilganligini 15 ta manba asosida dalillab, ularga o'zlarining mantiqiy tili bilan zarba beradi (Itr N., 1997:409-413).

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharof Quzot, Muhammad Samohiy va Aliy Buqoiyning asarlari hadis tushunchalarini oson va tushunarli qilib beradigan yaxshi darsliklar hisoblanadi.

Ammo chuqur fikrlash, mavzularni tartibli va mantiqan bog'lab berish, sanad va matnni birgalikda tahlil qilish hamda zamonaviy tanqidlarga ilmiy asosda javob berish jihatidan Nuriddin Itrning "Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis" asari ulardan ancha ustun va kuchli ilmiy asar hisoblanadi.

References:

1. Quzot Sh. Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis. – Amman: Dor al-furqon, 1999.
2. Buqoiy A.N. Al-Manhaj al-hadis fi tas'hiyl ulum al-hadis. – Bayrut: Dor al-bashair al-islamiya, 2002.
3. Itr N. Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1997.
4. Jurakulov S. Nuriddin Itrning "Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis" asari hadisshunoslikdagi muhim manba (Magistrlik dissertatsiyasi). – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2026.
5. Kiraz A., Alkasmalhadad A. A Study on The Book of Nureddin 'Itr and Manhaj an-Naqd fi 'ulūm al-Ḥadīth. – Gifad: Gümüşhane Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, 2023. – 12(23). – S. 312-329.
6. Kurdian I.R., Pramesta B. va boshq. (2026). The Epistemological Shift in Hadith Science: From al-Hakim's Systematic Classification to Nur al-Din 'Itr's Methodological Framework. – Diroyah: Jurnal Studi Ilmu Hadis, 10(2), 192.
7. Samohiy M. Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis (Mustalah al-hadis qismi va Roviylar qismi). – Qohira : nashriyoti berilmagan, 2000.



8. Quzot Sh. Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis. – Amman: Dor al-furqon ,1999.
9. Buqoiy. A.N. Al-Manhaj al-hadis fi tas’hiyl ulum al-hadis. – Bayrut: Dor al-bashair al-islamiya, 2002.
10. Itr. N. Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis. – Damashq: Dor al-fikr, 1997.
11. Jurakulov. S. (2026). Nuriddin Itrning “Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis” asari hadisshunoslikdagi muhim manba (Magistrlik dissertatsiyasi). – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
12. Kiraz A., Alkasmalhadad A. A Study on The Book of Nureddin 'Itr and Manhaj an-Naqd fi 'ulūm al-Ḥadīth. – Gifad: Gümüşhane Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, 2023. – 12(23). – S. 312-329.
13. Kurdian I.R., Pramesta B. va boshq. (2026). The Epistemological Shift in Hadith Science: From al-Hakim’s Systematic Classification to Nur al-Din ‘Itr’s Methodological Framework. – Diroyah: Jurnal Studi Ilmu Hadis, 10(2), 192.
14. Samohiy M. Al-Manhaj al-hadis fi ulum al-hadis (Mustalah al-hadis qismi va Roviylar qismi). – Qohira : nashriyoti berilmagan, 2000.